

POLISINDETONNING POETIK VAZIFASI

Hokimjonova Dilobarxon Jo‘rabek qizi

FarDU Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **Abdupattoyev Muhammadtohir**

Tilshunoslik kafedrası professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikdagi polisindeton atamasi haqida so‘z yuritiladi, uning kelib chiqishi, ma‘nosi o‘rganiladi va misollar yordamida ko‘rib chiqiladi

Kalit so‘zlar: Polisindeton, asindeton, sintaktik figura, stilistik vosita, poeziya.

Adabiy san‘at vositalari orasida polisindeton (yunoncha poly- “ko‘p”, syndeton- “bog‘lash”) alohida o‘ringa ega. Ushbu usul jumlada bir xil bog‘lovchilarning (va, yoki, ham, lekin, balki, va boshqalar) ortiqcha ishlatilishi orqali ekspressivlik va ta’sirchanlikni oshiruvchi stilistik vosita hisoblanadi. Polisindeton-sintaktik figuralar doirasida o‘rganiluvchi poetik ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Polisindeton, asosan, jumlada shoshqaloqlik, hayajon yoki kuchli hissiyotlarni ifodalash, ritm va ohang yaratish, matnning tasirchanligini oshirish uchun ishlatiladi va gapning semantik boyligini oshiradi. Poeziya, nasr va nutq san‘atida uning o‘rni beqiyos bo‘lib, adabiy ifodalarning chuqurroq ta’sir ko‘rsatishini ta’minlaydi. Shu sababli, polisindeton stilistik vosita sifatida adabiyotda ham, kundalik nutqda ham ahamiyatini yo‘qotmaydi. Mazkur sintaktik figuraning o‘rganilish tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ushbu uslubiy vosita qadimiy yunon va rim adabiyotidan beri qo‘llanilib kelinadi va hozirgi zamon adabiyotida ham keng tarqalgan. Rus tilshunos olimasi F. I. Djubayeva. bergan ma’lumotlarga qaraganda, polisindeton haqidagi dastlabki ma’lumotlar grek faylasufi Aristotel asarlarida uchraydi. Aristotel sintaktik figuralarni “takrorlanuvchi-kengaytiruvchilar” va “qisqartiruvchilar” kabi

turlarga bo‘lib o‘rgangan va polisindetonni “takrorlanuvchi-ko‘paytiruvchi” figuralar qatoriga, asindetonni esa “qisqartiruvchi” figuralar qatoriga kiritadi va ularni ritorikaning asosiy obyekti sifatida baholaydi.¹ Badiiy asarlarda bir yoki bir necha gap davomida ko‘plab bog‘lovchilar qo‘llanishi hollari mavjud bo‘lib, bunday hodisa polisindeton deb atalishini ko‘rib chiqdik. Odatda, yozuvchilar bog‘lovchilarni qo‘llash yo‘li bilan poetik nutqning ayrim qismlarini alohida ajratib ko‘rsatishga, so‘zlarning ma‘nosini ko‘rsatishga harakat qiladilar. Bog‘lovchilardan unumli foydalanish hodisasi buyuk so‘z san‘atkori bo‘lmish Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ko‘p uchraydi, uning “Mahbub ul-qulub”idan olingan quyidagi parchada “va” bog‘lovchisi bir necha marta takrorlangan. Masalan :

“Ammo ba’d fuqaroning gadoyi va g‘aroyib masturalarning chehrayi kushoyi al-faqir ul-haqir Alisher-ul-mulaqqob Ibn-Navoiy ...mundoq arz qilur va adosin farz bilurkim, bu xoksori parishon ro‘zg‘or shabob ovoning bidoyatidin kuhulat zamonining nihoyatig‘a davron voqiotidin va sipehri gardon hodisotidin va dahri fitnangiz buqalamunlig‘idin va zamonayi rangomiz gunogunlig‘idin muddati madid va ahli band har nav’ shiq va suratda aqdom urdum va har tavr suluk va kisvatida yugurdim”.

Ushbu jumalarda Alisher Navoiy “va” bog‘lovchisini takrorlash orqali matndagi sanashlarni ta’kidlab, kuchli hissiyotlarni ifodalaydi va uning ifoda kuchini oshiradi. Shu tarzda Navoiy hayotining turli davrlarini, olamning beqarorligini va zamonning rang-barangligini yanada ta’sirchan qilib ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, polisindeton gaplarda aks etayotgan obyektiv voqelikdagi hodisalar, ish-harakatlarning amalga oshirilishi, bajarilish izchilligini ifodalashga ham bevosita xizmat qiladi va ularni bo‘rttirib, takidlab ko‘rsatishda muhim omil sanaladi. Masalan:

¹ ДжубаеваФ.И. Гармония поэтического текста А.С. Пушкина. Ставрополь – 2008, 12-стр

“Ho‘p aytaylik, sen u yerga bording ham, uni topding ham, bu haqida u bilan suhbatlashding ham, keyin nima qilasan?”

Qo‘shimcha qilib aytganda “va”, “bilan” bog‘lovchilari bolalar nutqida ko‘p qo‘llanilganini uchratamiz, bu esa bolalarga xos shoshqaloqlik va kuchli hissiyotlarni ifodalashda foydalaniladi. Bu sintaktik uslubiy vosita chet el yozuvchilaridan hisoblanmish Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asarida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

“So‘nggi paytlarda uning tushiga na to‘fonlar na xotinlar va na buyuk voqealar na ulkan baliqlar va na janjal suronlar na kuch sinash musobaqalari va na o‘z xotini kiradi”.

Bunda “va”, “na” bog‘lovchilari matnning ta’sirchanligini oshirish, nutqning tabiiyligini ta’minlash maqsadida ishlatilgan. Jumladagi bog‘lovchilarning har biri alohida urg‘u berish orqali matnning ma’nosini yanada boyitadi. Ba’zan polisindeton hikoyani cho‘zilishiga olib keladi, ammo bu uslubiy maqsadga muvofiq bo‘lsa, natijada ta’sirchanlik oshadi. Ayniqsa, epik janrlarda, lirik nasrda yoki falsafiy fikrlarda bu holat ko‘p uchraydi.

Polisindeton she’riyatda qo‘llanib, sherda ritm va ohang yaratishda xizmat qiladi. Hamid Olimjonning “Ofeliyaning o‘limi” nomli she’rida shoir “va” bog‘lovchisini unumli foydalanadi va sherda ritm qo‘shadi va ohangdorlik baxshida etadi.

Masalan:

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan

Tarqalar bir ma’yus va g’amgin sazo.

Qo‘yningda bir quchoq oq va nafis gul,

Lekin ruhing to‘la motam va azo.

Asindeton (yunoncha a- – “yo‘q” va syndeton – “bog‘lash”) – gap yoki so‘zlar orasidagi bog‘lovchilarni ataylab tushirib qoldirish orqali matnga ta’sirchanlik, tezkorlik va qisqalik beruvchi stilistik vosita hisoblanadi. Asindeton polisindetonga qarama-qarshi bo‘lib, u jumlani ortiqcha bog‘lovchilardan tozalaydi va fikrni ixcham, kuchli ifodalash imkonini beradi. Asindeton nutq va matnga tezlik, shoshqaloqlik hissini berishda, fikrni ixcham, aniq va lo‘nda ifodalashda, dramatik yoki keskin ta’sir yaratishda, poeziya va nasrga emotsional kuch qo‘shishda ishlatiladi. Asindeton jumlada bog‘lovchilarni olib tashlash orqali tuziladi. Masalan:

Polisindeton: U yugurdi va yiqildi va yana turdi va davom etdi.

Asindeton: U yugurdi, yiqildi, turdi, davom etdi.

Bu yerda bog‘lovchilarning tushirib qoldirilishi gapni tezlashtirib, uning ta’sirchanligini oshirgan.

Stilistik vosita sifatida asindeton nutqning obrazlilikini oshirish, shuningdek, nutq tarkibiy qismlarining semantik qarama-qarshiligini kuchaytirish va matnning ekspressivligini oshirish uchun ishlatiladi va she’rda ritmni saqlab qolish uchun qo‘llaniladi Sirojiddin Sayyid ijodida ham asindetonning yaxshi namunalari uchraydi. Masalan:

Mezon ketdi, Aqrab ketdi, qavs ketdi

Shaftolilar bargidan bir xas ketdi

Bu sasdin dil devoriga darz ketdi

Momom ketdi, hovlisidan fayz ketdi.

Polisindeton badiiy nutqning muhim vositalaridan biri bo‘lib, jumlada bog‘lovchilarni ortiqcha ishlatish orqali matnga o‘ziga xos ekspressivlik, ritm va semantik boylik qo‘shadi. Poeziya, nasr va nutq san’atida uning o‘rni beqiyos bo‘lib, adabiy ifodalarning chuqurroq ta’sir ko‘rsatishini ta’minlaydi. Shu sababli,

polisindeton stilistik vosita sifatida adabiyotda ham, kundalik nutqda ham ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Asindeton esa stilistik vosita sifatida matnni lo‘nda, kuchli va ta’sirchan qiladi. Poeziya, nasr va ritorik nutqlarda tezlik va shiddat berish uchun ishlatiladi. Asindeton va polisindeton bir-biriga qarama-qarshi usullar bo‘lsa-da, ikkalasi ham adabiy san’atning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.